



XALQ DEPUTATLARI YOZYOVON TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 17 - iyun

VI-61-56-11-165-K/22

Yozyovon tuman hokimligi

2022-yil I-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo`naltirilgan mablag`lar hisoboti to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagи “Budjet ma`lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo`yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2022- yil 7-fevraldagи “Mahalliy budjet mablag`lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta`minlash to`g`risida”gi VI-54-9-11-165-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta`minlash maqsadida xalq deputatlari Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 7 fevraldagи “Mahalliy budjet mablag`lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta`minlash to`g`risida”gi VI-54-9-11-165-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo`naltirilgan mablag`lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo`limi mudiri S.Mirzayevning hisoboti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

- 2022-yil 1-choragida “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoni natijalari bo`yicha ma`lumotlar 1 va 2-ilovaga muvofiq;
- 2022-yil 1-choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg`armasi mablag`larining shakllanishi to`g`risidagi ma`lumotlar 3-ilovaga muvofiq;
- 2022-yil 1-choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg`armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g`olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo`limi (S.Mirzayev), Oila va xotin-qizlar markazi (B.Usmonova), Mahallabay ishslash va Tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, (E.Jumayev) Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi (U.Dexqonov) hamda mahalla fuqarolari yig`inlari bilan birgalikda joriy yilning iyul oyida o`tkaziladigan

“Tashabbusli budgetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalg etish bo`yicha targ`ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman hokimligi moliya bo`limi (S.Mirzayev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Xudoyqulov) Tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo`yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budget” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko`ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish hamda amalga oshirilgan ishlar yakuni bo`yicha Kengashga ma'lumot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi (I.Sheraliyev), ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag` allikni qisqartirish masalalari bo`yicha tuman hokiminining birinchi o`rinbosari (A.Eraliyev) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



D.T.Djalilov

Xalq deputatlari Yozyovon tuman
Kengashining
2022 yil 17 iyundagi
VI-61-56-11-165-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari buyicha

MA'LUMOT

T/r	Ko`rsatkich nomi	Summa (ming so`m)
1	Yil boshiga qoldiq	1 289 200,0
2	Fuqarolar tashabbusi jamg`armasiga o`tkazilgan mablag`lar*	3 696 200,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan g`olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar**	0,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to`langan mablag`lar	0,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga tulab berilmagan qoldiq mablag`lar	0,0
4	Fuqarolar tashabbusi jamg`armasidagi qoldiq mablag`lar	4 985 400,0

Xalq deputatlari Yozyovon tuman
Kengashining
2022 yil 17 iyundagi
VI-61-56-11-165-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Tashabbusli budjetlashtirish natijalari buyicha
MA'LUMOT**

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko`rsatkichlar		
			o`lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag`lar
1	Xududiy ichki yo`llar		umumiy uzunligi		
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'likni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Ko`cha chiroqlarini o`rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshka tadbirlar		soni		
jami		0	X	X	0